



МАЗМУН

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Тилеумуратова Г.Т. Қорақалпок адабиётин ўқитишида халқ оғзаки ижодидадан фойдаланиш усуллари

Aytbayev D.T. Ergash gapli qo'shma gaplarda diktum va modusning ifodalanishi

Mamarizayeva F.Z. Tarjimada badiiy asar uslubini saqlashning turli strategiyalari va bu jarayonning o'ziga xosligi (S.Ahmadning "Jimjitlik" asari misolida)

Qurbanova D.A. Neyrolingvistikaning fan sifatidagi ahamiyati

Odiljonova K.A. Leksikologiya hamda uni o'qitishga doir o'quv materiallari mazmuni hamda o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda so'zdan foydalana olishning mavjud ahvoli

Sultonkulov O.J. Zamonaviy tilshunoslikda "Vaqt" konseptini pragmatik jihatdan o'rganish masalalari

Еркибаева Г.Г., Турсыналиева Г.Б., Абдикаримов А. Фразеологические словари и фразеологическая компетенция

Otabayev M. N. The role of games in teaching English

Majidova G. Strategies for developing students' critical thinking skills in teaching foreign languages

Suyunov B.T, Shofqorov A.M. So'zlarda ma'no taraqqiyoti va tibbiy terminlar semantikasi

Abduqahhorova X.A Tarixga oid terminlar va ularning yasalishi

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

employing various strategies to develop critical thinking in EFL classrooms. While the suggested teaching methods for critical thinking are theoretically solid and grounded in research, there isn't one definitive approach that stands out as superior. When crafting critical thinking activities for the classroom, teachers should embrace flexibility and creativity, exploring different strategies or inventing new ones tailored to their specific classes. Successful critical thinking instruction in English as a Foreign Language (EFL) classrooms relies on teachers' intentional and continuous endeavors.

Literature:

1. H. Tekliuk. 2020. Techniques and Strategies of Critical Thinking Development in the Process of ESL Teaching.
2. Tom Garside. 2022. 4 ways to increase critical thinking in the English language classroom.
3. Assoc. Prof. Marsela Harizaj, PhD Assoc. Prof. Veneranda Hajrulla, PhD. 2017. Fostering Learner's Critical Thinking Skills in EFL: Some Practical Activities.
4. Mohd Nazir Md Zabit. 2010. Problem-Based Learning On Students' Critical Thinking Skills In Teaching Business Education In Malaysia: A Literature Review.
5. Zulaikha Khairuddin, Wan Faizatul Azirah Ismayatim , Othman Ismail , Noor Hanim Rahmat, Nur Adibah Zamri. 2021. Exploring Critical Thinking in Writing.
6. Julie C. Forrerter. 2008. Thinking Creatively; Thinking Critically.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhimligi ta'kidlanib, bu rivojlanish bir necha sinflarni o'z ichiga olgan bosqichma-bosqich jarayon ekanligi ta'kidlanadi. Tanqidiy fikrlash odamlarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash insonning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish chet tili o'qituvchilarining til o'qitish bilan birga e'tibor qaratishi kerak bo'lgan muhim mas'uliyati sifatida qaralmoqda. Til o'rganuvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Binobarin, strategiyalardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Ushbu maqola til o'qituvchilariga ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlash uchun tegishli strategiyalar, usullar va tadbirlarni tanlash bo'yicha amaliy takliflarni taqdim etishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья основана на знаниях, полученных на занятиях по английскому языку. В нем подчеркивается важность развития у учащихся способностей критического мышления, подчеркивая, что это развитие представляет собой постепенный процесс, включающий несколько классов. Критическое мышление предполагает способность людей к независимому мышлению и принятию решений. Сегодня развитие критического мышления среди учащихся рассматривается как важнейшая обязанность учителей иностранного языка в языковых классах. Несколько факторов влияют на способности изучающих язык к критическому мышлению. Следовательно, эффективно используя эти стратегии, учителя могут способствовать развитию навыков критического мышления. Целью этой статьи является предложить преподавателям языка практические предложения по выбору подходящих стратегий, методов и мероприятий для поддержки этого начинания.

SUMMARY

This paper draws upon insights gained from English language classes. It stresses the importance of nurturing students' critical thinking abilities, emphasizing that this development is a gradual process involving multiple classes. Critical thinking entails individuals' capacity to engage in independent thinking and decision-making. Today, fostering critical thinking among learners is viewed as a crucial responsibility of foreign language teachers within language classrooms. Several factors influence language learners' critical thinking abilities. Consequently, by effectively utilizing the strategies, teachers can facilitate the development of critical thinking skills. This article aims to offer language teachers practical suggestions for selecting appropriate strategies, methods and activities to support this endeavor.

SO'ZLARDA MA'NO TARAQQIYOTI VA TIBBIY TERMINLAR SEMANTIKASI

ChDPU, f.f.d. B.T.Suyunov, f.f.n. A.M.Shofqorov

Kalit so'zlar: leksema, semema, sema, komponent, termin, parametr, yarus, morfologiya, konversiya, polisemiya, struktura.

Ключевые слова: лексема, семема, сема, компонент, термин, параметр, ярус, морфология, конверсия, полисемия, структура.

Key words: lexeme, sememe, seme, component, term, parameter, layer, morphology, conversion, polysemy, structure.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy sohalarda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni tabiiy ravishda, avvalo, o'zbek tili leksikasida o'z aksini topmoqda. Bu esa, ayni paytda, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda, yangi-yangi so'z, tushuncha va terminlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois, leksik birlik sifatida o'zbek tili terminlari tizimini yanada teranroq tadqiq etish, xususan, terminologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda chuqurroq o'rganish hozirda muhim va jiddiy masalalardan biri bo'lib qoldi.

Terminlarni tadqiq etishda, birinchi navbatda, uning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratish kerak. Chunki termin, dastavval, sema (ma'no)lariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Binobarin, mazkur tadqiqotda leksik ma'no o'rganilib, ayrim sof o'zbekcha tibbiy terminlarning leksik-semantik jihatdan tahlilga tortilgani va tegishli xulosalar chiqarilgani, ayni paytda, uning dolzarbligini belgilaydi.

So'zning leksik ma'nosini semalar asosida tahlil qilishga keyingi paytlarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki bunday usuldagagi tahlil so'z semantikasiga aloqador juda ko'p hodisalarning mohiyatini to'g'ri belgilashga imkon beradi (S.G'oyibov, 1981: 203). Semalar sememaning mundarijasini tashkil etadi. Masalan, atrof leksemasining sememasi hamma va tomon so'zlaridan; kasal leksemasining sememasi organizm, faoliyat va buzilmoq so'zlaridan; kuchaymoq leksemasining sememasi kuchli, daraja va olmoq semalaridan tarkib topgan.

So'zning semantik xususiyatlarini tahlil qilishga doir ayrim rus tilshunoslarining ilmiy qarashlariga murojaat etamiz:

"Sema leksik ma'noning eng kichik bo'lagidir. So'zlarning ma'no komponentlari tarkibini aniqlashda sememaning barcha parametrlari bilan ma'no qirralarini hisobga olish zarur" (L.Novikov, 1982: 130). Tilshunos olim L.M.Vasilyev leksemalarning minimal birligi sifatida semalarning o'ndan ziyod turi borligini qayd etadi. U semalarni nafaqat leksik ma'no nuqtayi nazaridan, balki til birliklari va til sathlarining barcha semantik ko'rsatkichlari bo'yicha semik tahlil etish zarur, deb hisoblaydi. Til birliklarining har bir uzvida sememalar mavjud bo'lib, morfemadan boshlab, matn darajasigacha hammasida ma'no komponentlari bor. Til sathlari uch yarusli bo'lib, ularning har biridagi sathlar va sathlararo semantik munosabatlarni yuzaga chiqarish va tahlil etish semalar asosida amalga oshiriladi, deb ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunoslida sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari sema deb ataladi:

"Bir turkum sememasi asosida boshqa bir turkum sememasi yuzaga kelishi uchun turkumlik semasi (predmet, belgi, harakat kabilar) bu sememalarning semalar tarkibiga til bosqichida biriktirilgan bo'lishi kerak. Aks holda, bir turkum leksemasining boshqa bir turkum leksemasi kabi (o'rnida) ishlatilishi hodisisi yuz beradi, bunda yangi semema ham, yangi leksema ham yuzaga kelmaydi" (Sh.Rahmatullayev, 1984: 11–12).

Leksik birlikning yangi ma'noga ega bo'lishi tilning muayyan ichki yoki tashqi imkoniyatlari va qonuniylatlari asosida ro'y beradi. Ijtimoiy hayot, ilm-fan, texnika va tafakkur taraqqiyisi tabiiy ravishda tildagi so'zlar va terminlar, ularning ma'nolarini ham rivojlantiradi, yangi ma'nolarning paydo bo'lishi va qo'shilishiga, shuningdek, yangi so'z va terminlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Masalan, bir so'zining "miqdor son", "o'Ichov", "qism", "taxmin", "imkoniyat", "qat'iyat", "birdamlik", "hamkorlik", "qiyos", "tafsilot", "yolg'iz", "ortiqlik", "kamlik", "tezlik", "ehtiyot", "nav", "uddaburonlik", "doimiylik", "oqibat", "tasodif", "sir", "tasalli", "shart" kabi ma'nolari ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan (G'.Abdurahmonov, 1966: 152). Lekin ushbu misollarda bir so'zining ma'nolari ko'chim asosida turli tushunchalarni ifodalagan va bu tushunchalar o'sha matn yoki o'sha vaziyat bilan bog'liqidir. Demoqchimizki, yuqorida sanalgan ma'nolar bir so'zining doimiy, ya'ni til bosqichida biriktirilgan ma'nolari emas. Bunday vaziyatda, matn talabi bilan bog'liq holda, ayni bir so'zning ma'nolari ko'chadi. Lekin yangi ma'noli so'z (leksema) yuzaga kelmaydi.

So‘z leksik ma’nosi bilan so‘z bildiradigan voqelik boshqa-boshqa hodisalardir. So‘zda voqelikdagi predmetning, belgining yoki shular orasidagi munosabatning o‘zi emas, balki shular haqidagi tushuncha aks etadi. Shunga ko‘ra, leksik ma’no deb, odatda, shu so‘z anglatgan tushuncha ta’kidlanadi (U.Tursunov, 1975:10).

Polisemik so‘zda leksik ma’no, ya’ni semema bitta bo‘ladi, semalar, ya’ni ma’no komponentlari esa ko‘p bo‘ladi. So‘zning ma’nosi til, nutq va tushuncha masalalariga ham aloqador. U biror narsa, belgi yoki hodisa bo‘lsa-da, ayni paytda, kishi ongida ma’lum tasavvur hosil etishga xizmat qiladi. Ma’no, shuningdek, so‘zning tovush tizimi bilan uzviy bog‘liq. Tildagi tovushlarning istalgan holda yoki tartibsiz joylashuvi ma’no hosil etmaydi. Demak, so‘zning ma’nosi uning tovush tizimi bilan birga yashaydi.

Sintaktik nuqtayi nazardan xuddi shunday holatni biz **yaxshi** va **yomon** leksemalarida ham kuzatamiz:

“Yaxshiga yondash, yomondan qoch” o‘zbek xalq maqolini misol qilib olsak, unda yaxshi va yomon sifat so‘zлari shunday sifatga ega bo‘lgan kishilar ma’nosida, ya’ni ot o‘rnida qo‘llangan, xolos. Bu sifat leksemalar nutqda vaqtinchalik ot vazifasini bajarib turibdi. Til kategoriyalari nuqtayi nazaridan ular butunlay ot (predmet) bo‘lib qolgan emas, balki morfologik jihatdan sifat so‘zlarning otlashishi yuz bergan. Bu so‘zlarning ot bo‘lib qolishi uchun ularning predmet ma’nosi turkum semasi sifatida leksema tarkibida mavjud bo‘lishi kerak edi. Ayni paytda yaxshi va yomon sifat so‘zлari nutq vaziyati talabi bilan ot turkumi o‘rnida ishlatilgan, biroq yangi leksema yoki semema paydo bo‘lgan emas. Bir turkum semasi asosida boshqa bir turkum semasi vujudga kelganda, odatda, bosh va hosila semalar hamda ularning o‘ziga xos taraqqiy etishi kuzatiladi. Sememalar tarkibida jiddiy o‘zgarish – alohida leksik qurshovlar shakllanadi. Tilda bunday yoki aksincha vaziyatlar ro‘y berib turadi.

Turli xil ma’no ko‘chimlari (*metonimiya, metafora, vazifadoshlik, sinekdoxa, kinoya, majoz, istiora, sifatlash, o‘xshatish, jonlantirish va hokazo*) orqali, shuningdek, so‘zning sintaktik vazifasi, matn (nutq) vaziyatiga ko‘ra, so‘zlarning ma’nosi o‘zgarishi yoki boshqa ma’nolarda qo‘llanishi mumkin. Ammo bunday vaziyatlar tilda doimo yangi ma’noli so‘zning paydo bo‘lishiga olib kelavermaydi. Ko‘pincha bir so‘zning ma’no turlarini, polisemiyani hosil etadi. Ularni yangi ma’noli leksemaning paydo bo‘lishi hodisasi bilan adashtirib yubormaslik lozim.

Polisemianing yondosh hodisalardan farqlanuvchi belgilarini aniqlab chiqish zarur. Polisemantik so‘z strukturasi ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa ham, uni mukammal deb bo‘lmaydi. Polisemiyani yuzaga keltiruvchi hodisalar tilshunoslikda ko‘p o‘rinilgan bo‘lsa ham, u bir yoqlama bo‘lib qolgan.

Darhaqiqat, so‘zlardagi ko‘p ma’nolilik hodisasini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilda birgina ma’noni bildiruvchi so‘zlar monosemem leksemalar deb ataladi, ya’ni yunoncha **mono** – “bir”, **sema** – “belgi” demakdir. Monosemiyada bir shaklga barcha vaziyatlarda birgina ma’no to‘g‘ri keladi:

Odatda, ilm-fan, texnika va hunar sohalariga oid terminlar monosemem leksemalar hisoblanadi. Masalan: *chumchuq, kesim, izoh, fonendoskop, choynak kabilar*.

Polisemija (yunoncha **poly** – “ko‘p”, **sema** – “belgi”) hodisasida esa bir necha ma’no tolalarining bir bosh ma’noga birlashib turishini ko‘ramiz:

So‘z ma’nolarining ko‘chishi – konversiya, shuningdek so‘zlarda ma’no kengayishi yoki torayishi, so‘zlardagi polisemija, omonimiya, antonimiya, paronimiya kabi hodisalar leksik ma’noning turli qirralaridir. So‘zlardagi shakl va ma’no taraqqiyoti uzlucksiz davom etuvchi jarayon bo‘lib, ular vaqtı-vaqtı bilan turli lingvistik hodisalarni ro‘yogba chiqaradi.

Har bir sohaning o‘ziga xos tushunchalari bor. Bu tushunchalarning jami shu sohaning tushunchalar sistemasini tashkil etadi (R.Rasulov, B.Suyunov, Q.Mo‘ydinov, 2010: 45). So‘zning leksik ma’nosini boshqa ma’no turlaridan farqlash masalasi belgilovchi o‘rin tutadi. Yangi ma’noli so‘zning paydo bo‘lishi ana shu leksik ma’no bilan bog‘liq hodisadir.

Quyida terminologik tizimdan o‘rin olgan o‘zbekcha tibbiy terminlarning ba’zilarini ularning ma’no doiralari, leksik-semantik hamda etimologik xususiyatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz:

Temiratki (лишай) – tashqi ko‘rinishi, kechishi va keltirib chiqaruvchi sabablar turlicha bo‘lgan, ko‘pchilik teri kasalliklarini ifodalovchi termin. Qichishib, usti qipiqlanib turadigan har xil toshmalar qadimdan temiratki deb atalgan. Qizil yassi temiratki, pushti temiratki, yuzdag‘ oddiy temiratki, *psoriaz* – qipiqli temiratki, *trixofitiya* – qirma temiratki, tukli temiratki va boshqalar farq qilinadi (Salomatlik ensiklopediyasi, 1983: 406).

Temiratki – terida xiyol qizargan pufakchalar paydo bo‘lishi (A.Usmanxodjayev, 2013: 249).

TEMIRATKI – “sho‘rlagan yoki so‘zning temiratki shaklida (M.Koshg‘ariy, 1960, I, 453), boshqa lug‘atda **тэмрәкү** shaklida (Drevneturkiskiy slovar, 1969: 551), ko‘pchilik turkiy tillarda bu so‘z **тэмрөгү**, **темирәткү** shaklida (E.Sevortyan, 1974, III, 190), o‘zbek tilida **temiratki** shaklida ishlatalishi ta’kidlangan. Bu so‘zning oxiridagi **-ки** qismi ot yasovchi qo‘sishchasi bilan yasalgan bo‘lishi mumkin. Unda **tem** qismi ot yoki sifat bo‘lib chiqadi, lekin bu so‘z manbalarda ta’kidlanmagan (sho‘ralash kasalligini anglatgan ot bo‘lishi mumkin).

Boshqa bir lug‘atda bu so‘zning temirotkү shakli keltirilgan (K.Yudaxin, 1965: 723), lekin asosiy shakl temiretki ekani ta’kidlangan.

Xullas, temiratki tibbiy termini nima so‘rog‘iga javob bo‘ladi va til nuqtayi nazaridan mavhum turdosh ot hisoblanadi, ya’ni **temrә** fe’liga **-t** shakl yasovchisini qo‘sish va **-ки** o‘rin, payt va holat otlarini yasovchi qo‘sishchani qo‘sish bilan hosil qilingan: **temrә + t → temrät + ki → temrätki**. Keyinchalik, bo‘g‘inlarda tovush o‘zgarishlari yuz bergan: **temrätki → temirätki → temiratki** tarzida.

ЛИШАЙ – HERPES – появление слегка красных пузырков на коже (А.Усманходжаев, 2013: 249).

Лишай пузырьковый (HERPES SIMPLEX) – остро протекающее высыпание (чаще на губах и в области носа, на половых органах и т.д.) пузырков величиной с булавочную головку, обычно с прозрачным, а иногда с мутным или кровянистым содержимым. Пузырьки располагаются обычно группами на гиперемированном основании. Через 2-3 дня они вскрываются, содержимое их ссыхается и образуются красновато-коричневые корочки, которые через 8-10 дней отпадают. Субъективно на месте высыпания отмечается жжение и небольшой зуд (Медицинский справочник, 1957: 554-555).

Rus tilidagi talqinida temiratki kasalligining o‘nga yaqin turi o‘zaro ajratilgan holda, shu bilan birligida, farqli xususiyatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, 1) **лишай красный плоский** (*lichen ruber planus*), 2) **лишай опоясывающий** (*herpes zoster*), 3) **лишай отрубевидный или разноцветный** (*pityriasis versicolor*), 4) **лишай розовый** (*pityriasis rosea*) va boshqalar (Медицинский справочник, 1957: 554-555).

Shuningdek, o‘zbek tilida ham mazkur kasallikning 5-6 ta turi o‘zaro farqlanishi manbalarda ta’kidlangan.

Tutqaloq (эпилепсия) – yunoncha EPILEPSIA. Sinonimlari *quyonchiq, tutqanoq* – vaqtiga-saqta bilan es-hushning buzilishi, oyoq-qo‘llarning tortishishi va hushdan ketish bilan namoyon bo‘ladigan xuruqli kasallik. Bunda bemor hech narsani sezmaydi va ba’zi muskullari beixtiyor harakat qila boshlaydi.

Epilepsiyaning nasldan-naslga o‘tishi mumkinligi aniqlangan; ko‘p bemorlarda unga alkogolizm (ota yoki onaning alkogollli ichimliklarni ko‘p iste’mol qilishi) sabab bo‘lishi isbotlangan.

Epilepsiya turli xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha, to‘satdan uzoq davom etadigan tutqanoq tutadi. Bemor hushdan ketib yiqiladi, so‘ngra gavdasi taranglashib, barcha muskullar qisqarib, oyoq-qo‘llar tortishadi (tonik talvasa) keyin gavdaning hamma qismi bir necha bor qisqaradi (klonik talvasa). Deyarli ko‘p hollarda bevosita tutqanoq tutishidan oldin bir necha sekund davom etadigan o‘tkir ruhiy holat – aura yuz beradi.

Bulardan tashqari, bemorlarda trans holati – sirdan odatdagи xatti-harakatlarni ongsiz (ong nazoratisiz) bajarish kuzatiladi; bemor hushiga kelganidan so'ng, nima bo'lganini, qayerda ekanligini eslay olmaydi. Somnambulizm – transning bir turi hisoblanadi (Salomatlik ensiklopediyasi, 1983: 475). **TUTQALOQ** – “to'satdan tutib qolib, kishini akashak qilib qo'yadigan asab kasalligi”, “quyonchiq”, “epilepsiya”. *Sohiblar mirobga*: “*Tutqalog'i tutdi itvachchaning*”, - *deb kuldi* (Jumaniyoz Sharipov). Bu ot asli eski o'zbek tilida “ushla” ma'nosini anglatuvchi **tut** fe'lining kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi **-qa** qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan “takror” ma'nosini ifodalovchi **-la** qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakliga **-q** qo'shimchasini qo'shib yasalgan. Keyinchalik, ikkinchi bo'g'indagi **a** unlisi **ä** unlisiga q undoshi oldidagi **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: **tut + qa → tutqa + la → tutqala + q → tutqälaq → tutqäloq**. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'z shevaga, tutqanoq shakli esa adabiy tilga mansub deb ta'kidlangan (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006: IV, 212-213), vaholanki, tutqanoq so'zi sheva talaffuzini aks ettiradi: **I** undoshi o'rniga **n** undoshi talaffuz qilinadi (Sh.Rahmatullayev, 2000: 362-363).

ЭПИЛЕПСИЯ (падучая болезнь) – EPILEPSIA – заболевание, характеризующееся периодически наступающими приступами судорог с временной потерей сознания, психическими расстройствами и изменением характера (А.Усманходжаев, 2013: 538).

Эпилепсия – развивается при травме головы, родовой травме, инфекциях, интоксикациях и опухолях мозга.

Симптомы и течение. Приступы с внезапным расстройством сознания, общими судорогами, во время которых у больного часто наблюдается прикусывание языка, пенистая слюна и недержание мочи. Иногда приступу предшествует период предвестников, так называемая аура (слуховые, зрительные, осязательные раздражения). Эпилептический припадок длится несколько минут, после чего обычно наступает длительный сон. Проснувшись, больные не помнят о происшедшем. Иногда припадки быстро следуют друг за другом (эпилептическое состояние). Припадки возникают через неравномерные промежутки. Иногда в течение жизни отмечаются лишь единичные припадки (Медицинский справочник, 1957: 258).

Tutqaloq terminining o'zagi **tut** so'zi bo'lib, tutmoq fe'lining buyruq shaklidir. Ushbu fe'lga **-qa** va **-la** shakl yasovchi hamda **-q** shaxs oti yasovchi qo'shimchasi qo'shilgan. Keyinchalik, ushbu so'z tarkibidagi tovushlar o'zgarishga uchragan.

O'zbek tilida, shuningdek, rus tilida ham ushbu kasallikning kelib chiqishi va klinik xususiyatlari haqida bir xil izoh berilganini ko'ramiz, biroq kasallikning o'zbekcha nomlanishi uzoq tarixiy-ijtimoiy jarayonlarni bosib o'tgan (B.Suyunov, 2022: 112). Shu bilan birgalikda, *tutqaloq* termini kasallikning asosiy belgi-xususiyatlari (simptomlari)ni o'zida ko'proq mujassam etganligini alohida qayd etish lozim.

Shilpiq (трахома) – 1). *Tib*. Ko'z jildi hamisha qizarib, yoshlanib turadigan yuqumli kasallik; traxoma. *Birov bukri, birov shol, birov shilpiq*. (K. Yashin, Hamza. 2). Shu kasallik tufayli ko'zdan to'xtovsiz oqadigan yiringli yosh. *Mastona xola yengi bilan ko'zlarining shilpig'ini artib bo'lgach, egachi singilga bir-ikki qarab oldi*. (Uyg'un, Tursunoy. 3). S.t. Shunday kasallikka yo'liqqan kishi va uning ismiga qo'shib aytiluvchi so'z (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006: 571). *Mo'min shilpiq Qo'rg'onchadagi bir bevaning qiziga uylanayotibdi*. P.Tursun, O'qituvchi).

Shilpiq – ko'zning yuqumli surunkali kasalligi; chuqur infiltratsiya, so'rg'ichlar gipertrofiyasi, follokullar, pannus va so'nggi davrida chandiqlar hosil qiladi (A.Usmanxodjayev, 2013: 470-471).

Traxoma (yun. trachus – g'adir-budir) – ko'z shilliq pardasining surunkali yallig'lanishi bilan kechadigan yuqumli kasallik. Traxomani chlamydia trachomatis qo'zg'atadi. Bemor kasallikning asosiy manbai hisoblanadi. Sog'lom ko'zga kir qo'l yoki uy-ro'zg'or buyumlaridan (ko'pchilik bitta yostiq, sochiq, adyol va b.dan foydalangada) yuqadi. Bolalar bog'cha va yaslilarda o'ynichoqlar orqali zararlanishi mumkin.

Traxoma sezilarsiz boshlanib, asta-sekin zo'rayadi. Avvaliga ko'zga bir narsa qadalgandek, qovoqlar og'irlashgandek tuyuladi. Yuqori qovoq shilliq pardasida shish va follikulalar (donachalar) paydo bo'ladi, ko'z qizaradi va qovoqlar toraya boradi.

SHILPIQ – “ko‘z jildi doim qizarib, yoshlanib turadigan yuqumli kasallik”, “tarxoma”. *Shilpiq kasalligini davolash ancha og ‘ir kechadi.* Bu otni o‘zbek tilidagi **shilvira** – so‘zi bilan qiyoslashdan ko‘rinadiki, ular uchun asos vazifasini **shil** qismi bajargan, lekin lug‘atlarda bunday ot o‘z aksini topmagan. Aslida bu ot qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, “yelimsimon modda” ma’nosini anglatgan. **Shilpiq** so‘zi ana shu otga **-ba** qo‘sishimchasining **-pi** shaklini qo‘shib yasalgan fe’ldan **-q** qo‘sishimchasi bilan yasalgan. O‘zbek tilida **i** unlilarining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: **shil + pi → shilpi + q → shilpiq → shilpiq** (Sh.Rahmatullayev, 2000: 454)

ТРАХОМА, -ы, ж. Заразное хроническое воспаление соединительной оболочки глаза. (С.Ожегов, 1953: 747). // прил. **трахоматозный**, -ая, ое (спец).

Трахома – хроническое инфекционное воспаление конъюнктивы (trachoma, conjunctivitis trachomatosa).

Инфильтрация конъюнктивы, развитие сосочков и зерен (фолликулов), которые замещаются рубцовой тканью. Трахома длится годами. Различают четыре стадии в её развитии. Первая стадия (trachoma I) – гипертрофия конъюнктивы, обильное образование зерен, главным образом на верхней переходной складке и обязательно в конъюнктиве хряща, гипертрофия сосочков. Вторая стадия (trachoma II) – начало образования рубцов, которых меньше, чем зерен. Глубокая инфильтрация конъюнктивы, фолликулы держатся. Третья стадия (trachoma III) – преобладание рубцов, но зерна и глубокая инфильтрация ещё имеются. Четвёртая стадия (trachoma IV) – законченное рубцевание без признаков инфильтрации и зерен.

*Shilpiq termini tilda ko‘z kasalliklaridan birini anglatadi, ot turkumiga kiradi, turdosh ot, aniq ot. Bu tibbiy terminning o‘zagi **shil** so‘zi bo‘lib, uning qadimgi shakli **shil** tarzida talaffuz etilgan va yelimsimon modda ma’nosini bildirgan. Keyinchalik, unga **-pi** shakl yasovchi qo‘sishimcha va **-q** ot yasovchi qo‘sishimchalar qo‘shilgan va nihoyat otdan ot so‘z yasalgan. Bu ot endi “yelimsimon modda” emas, balki kasallik nomi bo‘lib, yangi ma’no kasb etgan.*

Mazkur so‘zning “ko‘zdan to‘xtovsiz oqadigan yiringli yosh” ma’nosи ko‘chma ma’no bo‘lib, o‘zaro bog‘liqlik asosidagi metonimik ma’no ko‘chimiga misol bo‘ladi. Ushbu so‘zning uchinchi laqab ma’nosи qo‘sishimcha izoh, ya’ni nominativ ma’no ifodalandaydi.

Xulosa qilib quydagilarni aytish mumkin. So‘zning leksik ma’nosи bilan u anglatib kelgan tushuncha yoki voqelik o‘zaro farqlanadi, ya’ni leksik ma’noni boshqa hosila ma’no turlaridan ajratib olish lozim. Bunda leksik birliklarni sema va sememalar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tibbiy terminlarni sof o‘zbekcha va xorijiy tillardan o‘zlashgan guruhlarga ajratib, ularning yuzaga kelishi, etimologiyasi, tarixiy va madaniy rivojlanishini o‘rganish tibbiyot sohasida ko‘pgina kasalliklarga to‘g‘ri tashxis qo‘yish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda biror kasallik nomini anglatgan tibbiy terminlarning, ayni paytda, boshqa tillarda ularning ifodalanishi va xususiy belgilarini o‘zaro qiyoslash orqali yoritib berilishi shu terminning ilmiy tabiatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Umuman, yuqoridagi tahlil va tadqiqlardan so‘zlarda leksik ma’noning taraqqiy etishi, shuningdek terminologik tizimda ayrim o‘zbekcha tibbiy terminlarning kelib chiqish tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: “Xalq merosi”, 1994.
2. Древнетюркский словарь. Лгр.: 1969.
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I – III tomlar. – Toshkent: 1960-1967.
4. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: “Fan”, 2010.
5. Meditsina hamshirasi spravochnigi. – Toshkent: “Meditina”, 1999.
6. Медицинский справочник. Москва: 1957.
7. Новиков Л.Н. Семантика русского языка. – Москва, 1982.
8. Ожегов С. Словарь русского языка. – Москва: 1953.

9. Rasulov R., Suyunov B., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Тошкент, 2010.
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1984.
11. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: “Universitet”, 2000.
12. Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. . I – IV томлар. – Москва: 1974-1989.
13. Suyunov B.T. Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi. Monografiya. – Toshkent: 2022.
14. Salomatlik ensiklopediyasi. – Toshkent: “Matbuot”, 1983.
15. Tursunov U. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1975
16. Усманходжаев А. Большой медицинский учебный словарь. – Ташкент: “Навруз”, 2013.
17. Юдахин К. Киргизско-русский словарь. – Москва: 1965
18. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” – 2006.
19. G‘oyibov S. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: “Fan”, 1981
20. Hozirgi o‘zbek adabiy tili./ G‘. Avdurahmonov tahriri ostida. – Toshkent, 1966.
21. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2002.

Rezyume

Mazkur maqolada so‘z va uning semantik xususiyatlari, leksik ma’noning eng kichik birliklari, shuning dek ayrim o‘zbekcha tibbiy terminlarning semantikasi va etimologiyasi masalalari haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Резюме

В данной статье рассматриваются слово и его семантические особенности, мельчайшие единицы лексического значения, а также семантика и этимология некоторых узбекских медицинских терминов.

Summary

This article discusses the word and its semantic features, the smallest units of lexical meaning, as well as the semantics and etymology of some Uzbek medical terms.

TARIXGA OID TERMINLAR VA ULARNING YASALISHI

Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: tarixga oid terminlar, terminosistema, affiksatsiya usuli, ichki va tashqi manba, o’zlashma terminlar, fors- tojikcha so‘zlar.

Ключевые слова: исторические термины, терминология, способ аффиксации, внутренние и внешние источники, заимствованные термины, персидско-таджикские слова.

Key words: historical terms, terminology, method of affixation, internal and external sources, borrowed terms, Persian-Tajik words.

Bugungi kunda terminosistemaning tizimli shakllanishida terminografik tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Tilning terminologik tizimlarini, shuningdek, tilning umumiy boyligini ko‘rsatib beruvchi izohli lug‘atlar har qanday tilshunoslik uchun bu boradagi eng yirik amaliy tadqiqotlar sanaladi.